



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LGHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikramova Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA INSON KAPITALI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	212
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	218
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	225
Raximova Lolaxon Avazovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Raximova Lolaxon Avazovna
Osiyo xalqaro universiteti
Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0001-1286-9251

Annotatsiya. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi moliyaviy texnologiyalar (fintex) sohasini iqtisodiyotning eng dinamik segmentlaridan biriga aylantirmoqda. Maqolada raqamli iqtisodiyot va fintex o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, fintex mexanizmlarining moliyaviy xizmatlar sifati va qamrovini oshirishdagi o'zni nazariy jihatdan tahlil qilingan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan me'yoriy-huquqiy islohotlar, xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida shakllangan raqamli to'lov infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari ochib berilgan. Mobil to'lov tizimlari, raqamli banking va elektron tijorat platformalari misolida fintex xizmatlaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida fintex sohasini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar — kiberxavfsizlik xatarlari, bozor konsentratsiyasi va raqamli savodxonlik darajasining pastligi — aniqlangan. Muallif tomonidan fintex sohasini tartibga solish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda fintex mexanizmlari moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi tizimli omil sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar, fintex, raqamli to'lov tizimlari, moliyaviy inklyuziya, kiberxavfsizlik, raqamli banking.

Аннотация. В последние годы стремительное развитие цифровой экономики превращает сферу финансовых технологий (финтех) в один из наиболее динамичных сегментов экономики. В статье теоретически проанализированы взаимосвязь между цифровой экономикой и финтехом, а также роль финтех-механизмов в повышении качества и расширении охвата финансовых услуг. Раскрыты тенденции развития инфраструктуры цифровых платежей, сформированной в результате нормативно-правовых реформ, осуществляемых в Узбекистане, в частности в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030». На примере мобильных платежных систем, цифрового банкинга и платформ электронной коммерции проанализирована практика использования финтех-услуг. В результате исследования выявлены основные факторы, препятствующие развитию сферы финтеха, — риски кибербезопасности, концентрация рынка и низкий уровень цифровой грамотности. Автором разработаны научно обоснованные предложения по регулированию и развитию сферы финтеха. Научная новизна работы заключается в обосновании финтех-механизмов как системного фактора обеспечения финансовой инклюзии и экономической стабильности.

Ключевые слова: цифровая экономика, финансовые технологии, финтех, цифровые платежные системы, финансовая инклюзия, кибербезопасность, цифровой банкинг.

Abstract. In recent years, the rapid development of the digital economy has transformed financial technology (fintech) into one of the most dynamic segments of the economy. The article theoretically analyzes the relationship between the digital economy and fintech, as well as the role of fintech mechanisms in improving the quality and expanding the coverage of financial services. The development trends of the digital payment infrastructure formed as a result of regulatory and legal reforms implemented in Uzbekistan, particularly within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" Strategy, are examined. The practice of using fintech services is analyzed through the examples of mobile payment systems, digital banking, and e-commerce platforms. The study identifies the main factors hindering the development of the fintech sector, including cybersecurity risks, market concentration, and a low level of digital literacy. The author develops scientifically grounded proposals for the regulation and development of the fintech sector. The scientific novelty of the study lies in substantiating fintech mechanisms as a systemic factor in ensuring financial inclusion and economic stability.

Keywords: digital economy, financial technologies, fintech, digital payment systems, financial inclusion, cybersecurity, digital banking.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotining raqamlashuvi so'nggi o'n yillikda moliya sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mobil to'lovlar, raqamli banking, sun'iy intellekt va bulutli texnologiyalar asosida shakllangan moliyaviy texnologiyalar (fintex) an'anaviy moliyaviy vositachilik modelini o'zgartirib, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmonida milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Fintex xizmatlarining kengayishi nafaqat moliya institutlarining faoliyat yuritish uslubini, balki iste'molchilarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish odatlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Mobil to'lov ilovalari, elektron hamyonlar va raqamli kreditlash platformalari orqali aholi va tadbirkorlik subyektlari moliyaviy xizmatlarga tezkor va qulay tarzda kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, fintex sohasining jadal rivojlanishi bozor konsentratsiyasi, raqobat va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasida yangi vazifalarni ham keltirib chiqarmoqda, bu esa mavzuning ilmiy-amaliy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning obyekti — raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalar (fintex) sohasi.

Tadqiqotning predmeti — fintex mexanizmlaridan foydalanish orqali moliyaviy xizmatlar samaradorligi va qamrovini oshirishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar.

Tadqiqotning maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida fintex mexanizmlarining nazariy mohiyati va ahamiyatini yoritish, O'zbekiston amaliyotidagi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: fintex tushunchasining nazariy mohiyatini ochib berish; O'zbekistonda fintex sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asosni tahlil qilish; raqamli to'lov infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish; fintex sohasini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash; sohani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) doirasida olib borilgan tadqiqotlarda fintex va yirik texnologiya kompaniyalari (big tech) kreditlashining global miqyosda tez sur'atlar bilan o'sib borayotgani qayd etilgan. Xususan, G. Cornelli va boshqa mualliflarning tadqiqotiga ko'ra, 2019-yilda fintex va big tech krediti global miqyosda taxminan 800 milliard AQSh dollariga yetgan, bu esa mazkur sohaning an'anaviy kreditlash tizimini to'ldiruvchi muhim vositaga aylanganidan dalolat beradi [4]. Shu bilan birga, mualliflar fintex kreditining ayniqsa moliya tizimi unchalik rivojlanmagan va bank filiallari kam bo'lgan bozorlarda jadal rivojlanayotganini ta'kidlaydilar, bu esa uning moliyaviy inklyuziyani oshirishdagi salohiyatini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan I.G'. Ochiлова raqamli iqtisodiyot va fintex integratsiyasi masalalarini o'rganib, moliyaviy texnologiyalarni raqamli iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida baholaydi hamda ularning moliyaviy xizmatlar xarajatlarini qisqartirish va innovatsion yechimlarni joriy etishdagi rolini asoslaydi [3]. Muallif, shuningdek, raqamli innovatsiyalarning bozor tuzilmasiga ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega ekanligini — bir tomondan raqobat va moliyaviy inklyuziyani kuchaytirsa, ikkinchi tomondan yirik texnologik platformalar foydasiga bozor konsentratsiyasini oshirishi mumkinligini — ta'kidlaydi [3].

Tijorat banklarida fintexning rivojlanish tendensiyalarini o'rganuvchi tadqiqotlarda O'zbekistonda "Click" va "Payme" kabi mobil to'lov tizimlarining keng tarqalganligi va ularning bank xizmatlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishdagi o'rni alohida qayd etiladi [5]. Bunday tadqiqotlar milliy statistik manbalarga tayangan holda tijorat banklarining raqamli transformatsiya jarayonlarini o'rganishga qaratilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, xalqaro adabiyotlarda fintexning moliya bozori tuzilmasi va raqobatga ta'siri nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, mahalliy tadqiqotlarda bu masala ko'proq tavsifiy xarakterga ega bo'lib, fintex xizmatlarining real iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholashga qaratilgan ishlar hali yetarli emas. Bu esa ushbu maqola mavzusining ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni o'rganishda tizimli tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. O'zbekistonda fintex sohasining rivojlanish tendensiyalarini baholashda ochiq manbalardagi statistik va amaliy ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Xalqaro tajribani mahalliy amaliyot bilan taqqoslashda qiyosiy tahlil usulidan, tadqiqot natijalarini shakllantirishda esa induksiya, deduksiya va sintez usullaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Fintex (financial technology) deganda moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish, ularga kirish va ularni boshqarishni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga xizmat qiluvchi vositalar, platformalar va yechimlar majmuasi tushuniladi. Zamonaviy fintex mexanizmlarini quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- **Raqamli to'lov tizimlari** — mobil ilovalar, elektron hamyonlar va kontaktsiz to'lov vositalari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish. O'zbekistonda "Click" va "Payme" kabi tizimlar keng tarqalgan bo'lib, xalqaro standartlarga mos xizmatlarni taklif etadi [5].

- **Raqamli banking** — mijozlarga bank xizmatlaridan masofadan, mobil ilova yoki veb-interfeys orqali foydalanish imkonini beruvchi yechimlar.

- **Muqobil kreditlash (P2P va platforma krediti)** — an'anaviy bank kreditlashini to'ldiruvchi, texnologik platformalar orqali amalga oshiriladigan kreditlash shakllari [4].

- **Insurtech va regtech/supotech yechimlari** — sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish, shuningdek, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlarning o'z vazifalarini raqamli vositalar yordamida bajarishi.

- **Elektron tijorat va marketplace to'lov infratuzilmasi** — onlayn savdo platformalarini raqamli to'lov tizimlari bilan integratsiyalash orqali tadbirkorlar va iste'molchilar uchun qulay hisob-kitob imkoniyatlarini yaratish.

O'zbekistonda raqamli to'lov infratuzilmasining rivojlanish sur'atlarini amaliy misolda ko'rish mumkin. Xususan, Uzum Fintech ekotizimi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda foydalanuvchilar umumiy qiymati 3,8 trillion so'mlik 47 milliondan ortiq naqd pulsiz to'lovni amalga oshirgan, 2026-yil birinchi yarim yilligi yakunlariga ko'ra esa faol savdogarlar soni 30 foizga oshgan [6]. Ushbu tendensiya raqamli to'lovlarning tadbirkorlik faoliyati va iste'molchilar o'rtasidagi hisob-kitoblarning shaffofligini oshirishga xizmat qilayotganini, shuningdek, fintex xizmatlarining real sektor bilan integratsiyasi jadallashayotganini ko'rsatadi [6].

Fintex sohasining rivojlanishi O'zbekistonda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish vazifalari belgilangan [1]. Bundan tashqari, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi ham izchil takomillashtirilib borilmoqda, bu esa raqamli to'lov va savdo tizimlarining huquqiy jihatdan barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi [2].

Shu bilan birga, fintex sohasining jadal rivojlanishi bir qator muammolarni ham yuzaga keltiradi. Birinchidan, moliyaviy xizmatlarning raqamlashuvi kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish borasidagi xatarlarni kuchaytiradi. Ikkinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yirik texnologik platformalarning (big tech) moliya bozoriga faol kirib kelishi bozor konsentratsiyasini oshirishi, bu esa uzoq muddatda raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [4]. Uchinchidan, mamlakat hududlari kesimida raqamli savodxonlik va internet infratuzilmasidan foydalanish darajasining notekisligi fintex xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli fintex sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda uni tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini ham muvozanatli tarzda takomillashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, fintex mexanizmlari raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlar sifati, qamrovi va samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda, biroq bu jarayon tegishli tartibga solish va infratuzilma rivojlanishi bilan muvozanatlashtirilishi lozim. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- fintex kompaniyalari va an'anaviy moliya institutlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi moslashuvchan tartibga solish (regulatory sandbox) mexanizmlarini yanada rivojlantirish;

- moliyaviy xizmatlarning raqamlashuvi bilan bog'liq kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;

- mamlakat hududlari, xususan, qishloq joylarida, aholi va tadbirkorlarning raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha maqsadli dasturlarni joriy etish;

- turli to'lov tizimlari va platformalar o'rtasida o'zaro integratsiya (interoperability)ni ta'minlash orqali fintex xizmatlaridan foydalanish qulayligini oshirish;

- fintex bozorida raqobat muhitini muntazam monitoring qilish va bozor konsentratsiyasining oldini olish bo'yicha antimonopol tartibga solish vositalarini takomillashtirish.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni rag'batlantirish hamda milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-sonli Farmoni. // lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 22-maydagi «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-385-sonli Qonuni. // lex.uz
3. Ochilova I.G'. Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar integratsiyasi // «O'zbekistondagi ilmiy yangiliklar jurnali». — 2025-yil, 25-iyun. — B. 67–76.
4. Cornelli, G., Frost, J., Gambacorta, L., Rau, R., Wardrop, R., Ziegler, T. Fintech and big tech credit: a new database // BIS Working Papers, No. 887, 2020.
5. Tijorat banklarda fintechning rivojlanish tendensiyasi (O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan banklar misolida) // ResearchGate, 2024.
6. Fintech O'zbekistonda iqtisodiyotni shaffolashtirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda // Kun.uz, 08.07.2026-yil.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
